**XALQ DEPUTATLARI QUVA TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2025-yil 22-fevral VII-5-25-11-156-K/25 Quva tumani

**Quva tumani mahalliy budjetining 2025-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini taqsimlash to‘g‘risida**

“O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrdagi PQ-455-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi “Budjet kodeksi”ning 126-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga mahalliy budjetlarni boshqarishda erkinliklar berilib, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha stavkalarini belgilash, mahalliy budjeti xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 11-bandiga asosan mahalliy Kengashning qarori asosida yo‘naltirilishi belgilab berilgan.

Tuman mahalliy budjetining 2025-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq miqdori 2 047 724,0 (ikki milliard qirq yetti million yetti yuz yigirma to‘rt) ming so‘mga teng bo‘lgan. Ushbu mablag‘larni tuman hokimining birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining bildirgisini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Quva tuman Kengashi

**QAROR QILADI**:

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-son Qarori, moliya vazirligining 2022-yil 14-yanvardagi 03/03-05-32/100-son topshiriq xatiga asosan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ni shakllantirish maqsadida tuman mahalliy budjetining 2025-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq hisobidan 614 400,0 (olti yuz o‘n to‘rt million to‘rt yuz) ming so‘m miqdoridagi pul mablag‘i “Open budjet uz” portali orqali jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirish uchun jamoatchilik fikri asosida shakllangan jamg‘armaga o‘tkazib berish uchun tuman hokimligiga ajaratilsin.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda hukumat farmon va qarorlarida belgilangan tadbirlar, shuningdek ijtimoiy soha ob’ektlarini saqlash, tumanni obodonlashtirish va boshqa xarajatlar uchun 1 052 177,0 (bir milliard ellik ikki million bir yuz yetmish yetti) ming so‘m miqdorida pul mablag‘ini ajratilishiga rozilik berilsin.

**3.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 6-7-may kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi davomida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan majlis bayonining 18-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy hokimiyat organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3042-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2020-yil 11-dekabrdagi “Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatiga oid namunaviy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-161-IV-son Qaroriga asosan Quva tuman hokimligi, iqtisodiyot va moliya bo‘limi, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati hamda ijtimoiy ko‘nikma markazi xodimlari o‘rtasida korrupsiyaviy holatlarni oldini olish, ularni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida (tuman hokimi va o‘rinbosarlari bundan mustasno), xodimlarga lavozim maoshi (qo‘shimchalarsiz) miqdorida qo‘shimcha ustama haq to‘lash uchun tuman hokimligiga 231 271,0 (ikki yuz o‘ttiz bir million ikki yuzyetmish bir) ming so‘m, iqtisodiyot va moliya bo‘limiga 52 419,0 (ellik ikki million to‘rt yuz o‘n to‘qqiz) ming so‘m, xalq deputalari tuman Kengashi kotibiyatiga 45 569,0 (qirq besh million besh yuz oltmish to‘qqiz) ming so‘m, ijtimoiy ko‘nikma markazi hodimiga 4 888,0 (to‘rt million sakkiz yuzsakson sakkiz) ming so‘m miqdorida pul mablag‘i ajratilishiga;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-son qaroriga asosan “Suv yetkazib berish xizmati” uchun 47,0 (qirq yetti) million so‘m miqdorida pul mablag‘i ajratilishiga rozilik berilsin.

**4.** Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (**J.Zakirov**) budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini Kengashga kiritilishini ta’minlasin.

**5.** Ushbu qarorning ijro etilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘lmi boshlig‘i **J.Zakirov** hamda xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi **A.Dadajonov** zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

UMAROV XALIMJON KOMILOVICH

Xalq deputatlari Quva tumani
Kengashining
2025-yil 22-fevraldagi
VII-5-25-11-156-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**"ТАСДИҚЛАЙМАН"**
**Фарғона вилояти ҳокими**
**_____Х.Бозаров**
**"___"_____2025 йил**

**Фарғона вилояти шаҳар ва туманлар маҳаллий бюджетларида 2025 йил бошига шаклланган эркин қолдиқ маблағларидан фойдаланиш**
**ЙЎНАЛИШЛАРИ**

млн.сўм

| Т/Р | Шаҳар ва туман номи | 2025 йил бошига шаклланган эркин қолдиқ маблағлари | Жами харажатлар | Харажатларни мақсадли йўналишлари | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | ЎРҚ-742 га асосан "Фуқаролар ташаббуси" жамғармаси (30 фоиз) | 2024 йилда "Фуқаролар ташаббуси" жамғармасига ўтказилмаган маблағ | *** Ҳокимлик, Кенгаш котибияти, Иқтисодиёт ва молия бўлими ходимларига қўшимча иш ҳақи | ВМ-79 сон қарорга асосан "Сув етказиб бериш хизмати" учун ўтказиб берилиши лозим бўлган маблағ | Бошқа харажатларга |
| **х** | **Жами** | **30 642,8** | **30 642,8** | **9 192,8** | **451,0** | **9 369,0** | **634,0** | **10 995,9** |
| 1 | Фарғона шаҳри | 4 177,4 | **4 177** | 1 253,2 | | 724 | | 2 200,4 |
| 2 | Қўқон шаҳри | 2 002,7 | **2 003** | 600,8 | | 390 | | 1 012,0 |
| 3 | Қувасой шаҳри | 2 043,0 | **2 043** | 612,9 | 451,0 | 575 | 26 | 378,2 |
| 4 | Марғилон шаҳри | 1 716,5 | **1 716** | 514,9 | | 588 | | 613,4 |
| 5 | Олтиариқ тумани | 1 298,5 | **1 298** | 389,5 | | 563 | 21 | 325,4 |
| 6 | Боғдод тумани | 1 314,8 | **1 315** | 394,4 | | 420 | 26 | 474,6 |
| 7 | Бувайда тумани | 1 396,5 | **1 396** | 418,9 | | 495 | 61 | 421,6 |
| 8 | Бешариқ тумани | 1 114,8 | **1 115** | 334,4 | | 516 | 154 | 110,4 |
| 9 | Қўва тумани | 2 047,7 | **2 048** | 614,3 | | 439 | 47 | 947,9 |
| 10 | Учқўприқ тумани | 1 369,1 | **1 369** | 410,7 | | 558 | 30 | 370,3 |
| 11 | Риштон тумани | 1 215,3 | **1 215** | 364,6 | | 392 | 33 | 425,7 |
| 12 | Сўх тумани | 1 087,7 | **1 088** | 326,3 | | 425 | 1 | 335,9 |
| 13 | Тошлоқ тумани | 1 165,7 | **1 166** | 349,7 | | 606 | 18 | 192,2 |
| 14 | Ўзбекистон тумани | 1 408,6 | **1 409** | 422,6 | | 579 | 35 | 372,1 |
| 15 | Фарғона тумани | 1 503,9 | **1 504** | 451,2 | | 542 | | 510,5 |
| 16 | Данғара тумани | 1 077,7 | **1 078** | 323,3 | | 589 | 27 | 138,6 |
| 17 | Фуркат тумани | 1 212,4 | **1 212** | 363,7 | | 443 | 48 | 357,3 |
| 18 | Ёзёвон тумани | 2 279,6 | **2 280** | 683,9 | | 110 | 82 | 1 403,8 |
| 19 | Қўштепа тумани | 1 211,0 | **1 211** | 363,3 | | 417 | 25 | 405,5 |

*** Изоҳ: Шаҳар ва туман ҳокимиятлари ходимларига қўшимча иш ҳақи тўлаб берилишида ҳоким ва ҳоким ўринбосарлари назарда тутилмаган аниқ ҳисоб-китобларга асосан ажратиладиган маблағлар миқдорига ўзгартириш киритиш мумкун.